

**TAFAKKUR FE'LLARINING PRAGMATIK VA MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI:
INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA***Abidova Zilola Xabibullayevna**G'arb tillari kafedrasi katta o'qituvchisi**Toshkent davlat shaqrshunoslik universiteti**orcid.org/0000-0002-3013-0063**UO'K: 811.111'366.581+811.512.133'366.581*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida tafakkur fe'llarining pragmatik va morfologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda tafakkur fe'llarining kontekstga bog'liq ma'nolari, ishlatalish usullari va pragmatik funksiyalari o'rganilib, tillararo farq va o'xshashliklar aniqlanadi. Shuningdek, morfologik jihatdan fe'llarning shakllanishi, yordamchi fe'llar, suffifikslar va predloglarning roli ko'rib chiqiladi. Maqola tafakkur fe'llarining pragmatik va morfologik qatlamlarini chuqurroq anglashga xizmat qilib, tillararo semantik va sintaktik bog'liqliklarni yoritadi hamda lingvistik tadqiqotlarda pragmatika va morfologiyaning integratsiyasining ahamiyatini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: tafakkur fe'llari, pragmatik xususiyat, kontekst, matn turi, morfologik forma, ingliz tili, o'zbek tili.

Asosiy qism: Tafakkur fe'llari, odatda, mavhum aqliy jarayonlarni ifodalaganligi sababli, ularning semantik xususiyatlari nutq kontekstida to'liq namoyon bo'ladi. Ushbu fe'llarning pragmatik tadqiqi ilmiy, badiiy va yuridik matnlar misolida alohida ahamiyat kasb etadi. Ilmiy matnda "tushunmoq", "anglamoq", "baholamoq" kabi fe'llar dalil va fikrning ifoda shakli bo'lsa, badiiy matnda ular ruhiy kechinma va ichki nutq vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan: "U bu xulosa ortida qanday fikr yotganini anglab yetdi" jumlesi fikr yuritish jarayonining kontekstual ifodasidir.

Morfologik jihatdan o'zbek tilida "tushunmoq", "o'y lab ko'rmoq", "eslab qolmoq" kabi shakllar turli yordamchi fe'llar orqali semantik jihatdan boyitiladi. Ingliz tilida esa frazali shakllar - "to think over", "to figure out", "to dwell upon" kabi ko'rinishlar ushbu semantik yuksalishni bildiradi. Masalan: "She thought over the situation carefully" (U vaziyat ustida jiddiy o'y lab ko'rni) va "He figured out the solution by himself" (U yechimni o'zi topdi) kabi jumlalar tafakkur jarayonining kontekstda ifodalanishiga misoldir.

Bunday fe'llar kontekstdagi matn funksiyasi bilan ham uzviy bog'liqidir. Yuridik matnda "taxmin qilmoq", "isbotlamoq", "baholamoq" kabi fe'llar so'zlovchining niyatini, huquqiy pozitsiyasini ifodalaydi. Masalan: "Jinoyatchining harakatlari maqsadli bo'lgan deb baholand" jumlesi huquqiy baholashda tafakkur fe'llining muhimligini ko'rsatadi. Pragmatik nuqtai nazardan tafakkur fe'llarining kontekstual ko'rinishlari ularning ma'noviy qatlamlarini chuqur anglash imkonini beradi. Bunda ijtimoiy kontekst, matnning janr xususiyatlari, muallifning nutqiy niyati asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, "fikr yuritmoq", "mantiqan tushunmoq", "xotiraga muhrlamoq" kabi iboralar tafakkur jarayonining bosqichlarini ko'rsatib beradi.

Ingliz tilida frazali fe'llar yordamida ifodalangan tafakkur holatlari ko'pincha pragmatik funksiyani o'z ichiga oladi. Masalan: "He was mulling over the consequences" (U oqibatlar ustida bosh qotirayotgan edi) – bu yerda 'mull over' iborasi uzoq o'ylash jarayonining

konnottativ ifodasidir. Yoki: "They are contemplating legal action" (Ular huquqiy choralarni ko'rib chiqmoqda) – bu yerda 'contemplate' fe'li maqsadli fikr jarayonini bildiradi.

Morfologik xususiyatlar nuqtai nazaridan, o'zbek tilidagi tafakkur fe'llarining ko'makchi fe'llar bilan hosil qilinishi (masalan: 'tushunib yetmoq', 'o'yab ko'rmoq') mazmuniy boylikni ifodalaydi. Bu esa ularga funksional yuklama qo'shadi. Ingliz tilidagi prefiks va fraza qo'shimchalar (for example, think through, reflect upon) ham xuddi shunday semantik kengayishga olib keladi.

Ushbu jihatlar tafakkur fe'llarining kontekstda turli ma'nolar kasb etish imkonini kengaytiradi. Pragmatik tahlil usuli esa ushbu fe'llarning nutqiy sharoitdagi o'zgaruvchanligini, ijtimoiy va kommunikativ vazifasini tahlil qilish imkonini beradi.

Tafakkur fe'llarining pragmatik xususiyatlari ularning kontekstga moslashishi, nutq vaziyatida ma'nolarining o'zgarishi va qo'llanilish maqsadiga bog'liq ravishda tahlil qilinadi. Ingliz tilida "think", "consider", "reflect" kabi fe'llar pragmatik jihatdan turli kontekstlarda turlicha funksiyalarni bajaradi. Masalan, "think" fe'li oddiy fikr yuritishdan tortib, mulohaza qilish, qaror qabul qilish jarayonlariga qadar keng ma'nolarga ega bo'lishi mumkin. O'zbek tilida esa "o'yamoq", "fikr yuritmoq", "mulohaza qilmoq" kabi shakllar pragmatik jihatdan nutqning turli intonatsiyalari va kommunikativ vazifalariga moslashadi.

Shuningdek, pragmatik tahlil fe'llarning muloqotdagi ijtimoiy funksiyasini, ya'ni muloyimlik, shubha, qattiqlik yoki ishonchlilik kabi emotsiyalohanglarni aniqlashga imkon beradi. Ingliz tilida masalan, "I think" iborasi muloyimlik ifodasi sifatida ishlatilsa, o'zbek tilida "menimcha" yoki "deb o'ylayman" shakllari o'xshash vazifani bajaradi.

Morfologik jihatdan ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llari shakllanish tizimi sezilarli farqlarga ega. Ingliz tilida fe'llar ko'proq yordamchi so'zlar (modal verbs, auxiliaries) va predloglar bilan birikib, ma'no va pragmatik niyatlarini aniqroq ifodalaydi (masalan, "think about", "figure out", "reflect on"). Bu frazali fe'llar morfologik jihatdan ajralmagan, lekin sintaktik kombinatsiyaga tayanadi.

O'zbek tilida esa morfologik yo'nalishda fe'lga qo'shimchalar (suffikslar) va yordamchi fe'llar yordamida (masalan, "o'yab ko'rmoq", "fikr yuritmoq") semantik va pragmatik ma'no chuqurlashadi. Bu morfologik vositalar yordamida fe'llarning vaqt, davomiylik, yakuniylik kabi aspektlari aniq ifodalananadi. Shu bilan birga, o'zbek tilida fe'llarning morfologik qatlamlari ularning pragmatik vazifalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Asosiy qism: Pragmatika tillardagi leksik birliklarning kontekstual va kommunikativ ma'nosini o'rganadi. Tafakkur fe'llari, ayniqsa, nutq jarayonida o'zining pragmatik funksiyalari bilan ajralib turadi. Ingliz tilida "think", "consider", "reflect", "figure out" kabi fe'llar ko'p hollarda nafaqat fikr yuritishni, balki mulohaza qilish, baholash, qaror qabul qilish kabi aqliy jarayonlarni ham ifodalaydi.

Masalan, "I think" iborasi nutqda muloyimlik, ehtimollik yoki shubhani ifodalashda ishlatiladi. Bu pragmatik funktsiya suhbatdoshta qarshi muloyimroq va hurmat bilan fikr bildirish imkonini yaratadi. Shuningdek, "think over" yoki "think through" kabi frazalar fikrning chuqurlashuvi va yaxshilab o'ylashni bildiradi.

O'zbek tilida esa "o'yamoq", "fikr yuritmoq", "mulohaza qilmoq" kabi fe'llar nutqdagi pragmatik vazifalarini bajaradi. Masalan, "menimcha" yoki "deb o'ylayman" iboralarini ingliz tilidagi "I think" ga ekvivalent bo'lib, nutqdagi muloyimlik, ehtiyyotkorlik yoki o'z fikrini ifodalashdagi o'rni bilan ajralib turadi. O'zbek tilida qo'shimcha ravishda intonatsiya va ma'ruza uslubi pragmatik mazmunni boyitishda katta rol o'ynaydi.

Pragmatik tahlil shuni ko'rsatadiki, tafakkur fe'llari turli nutq vaziyatlariga moslashib, ma'no va funksiyalarining o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Bu esa ularning kommunikativ ahamiyatini oshiradi.

Morfologik tahlilda ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llarining shakllanish tizimi o'rganiladi. Ingliz tilida fe'llar asosan mustaqil so'z shaklida ishlatiladi va ularga ma'no

chuqurligini berish uchun yordamchi fe'llar (modal verbs, auxiliaries) va predloglar yordamida frazalar hosil qilinadi. Masalan, “think about”, “figure out”, “look into” kabi frazali fe'llar semantik jihatdan tafakkur jarayonining turli darajalarini ko'rsatadi.

Bu frazali fe'llar ingliz tilida morfologik ajralmagan bo'lib, ularning ma'nosi sintaktik kombinatsiyalar orqali aniqlanadi. Bu tilga xos xususiyat fe'llarning fleksibil va ko'p ma'noli bo'lishini ta'minlaydi.

O'zbek tilida esa fe'llarning morfologik tizimi boshqa yo'nalishda rivojlangan. Tafakkur fe'llariga qo'shimchalar (suffikslar) va yordamchi fe'llar birikishi orqali semantik va aspektual ma'nolar beriladi. Masalan, “o'ylab ko'rmoq”, “fikr yuritmoq”, “xulosa qilmoq” kabi birikmalar nafaqat harakatni, balki uning davomiyligi, yakuniyligi yoki takrorlanishini ham ifodalaydi.

Bu morfologik vositalar o'zbek tilida fe'llarning pragmatik va semantik qatlamlarini boyitishda muhim ahamiyatga ega. Fe'lga qo'shimchalar yordamida nutqdagi ohang, muloqotdagi munosabat aniqroq ifodalanadi.

Tafakkur fe'llarining pragmatik va morfologik xususiyatlarini til taqqoslash nuqtai nazaridan tahlil qilish tillararo o'ziga xosliklarni aniqlashga yordam beradi. Ingliz tilida ko'proq sintaktik yo'l bilan amalga oshiriladigan ma'no boyitish, o'zbek tilida esa morfologik vositalar bilan chuqurlashtirish tilning grammatic tizimiga bog'liq.

Integratsiyalashgan yondashuv orqali tafakkur fe'llarining nafaqat leksik semantik, balki pragmatik va morfologik qatlamlari birgalikda o'rganiladi. Bu esa tilshunoslarga tillarning ichki tuzilishini, fe'llarning kommunikativ va grammatic funksiyalarini yaxshiroq anglash imkonini beradi.

Natijalar qismi: Pragmatik darajada ingliz va o'zbek tillaridagi tafakkur fe'llari kontekstga bog'liq holda turli kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Ingliz tilida fe'llar ko'proq frazalar va yordamchi so'zlar orqali muloyimlik, shubha yoki qat'iylik kabi emotsiyonal ohanglarni ifodalaydi. O'zbek tilida esa pragmatik ma'no ko'proq morfologik vositalar yordamida ifodalanadi.

Morfologik jihatdan, ingliz tilidagi tafakkur fe'llari asosan yordamchi so'zlar va frazali fe'llar shaklida namoyon bo'lsa, o'zbek tilida fe'llar qo'shimchalar va yordamchi fe'llar yordamida ma'no va aspekt jihatidan boyitiladi. Bu farq tillarning turli grammatic tizimlaridan kelib chiqadi.

Denotativ ma'no bir xil bo'lsa-da, pragmatik va morfologik xususiyatlar tafakkur fe'llarining tillararo o'ziga xosliklarini ochib beradi. Bu esa tilshunoslikda tafakkur leksikasi va uning kommunikativ funksiyalarini chuqurroq o'rganish uchun muhim asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari tafakkur fe'llarining semantik, pragmatik va morfologik jihatlarini integratsiyalashgan yondashuv orqali o'rganish zarurligini ko'rsatadi, bu esa ikki tilli va tillararo taqqoslash tadqiqotlarining samaradorligini oshiradi.

Xulosa qismi : Tafakkur fe'llarining pragmatik va morfologik tahlili ularning faqatgina lug'aviy emas, balki kontekstual va nutqiy faoliyatdagi funksional qirralarini yoritishga imkon beradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi frazali fe'llar va qo'shimchali shakllar tahlili asosida ushbu fe'llarning kontekstda qanday semantik yuk ortishi yoki torayishi kuzatiladi. Shuningdek, matn turlaridagi vazifalari, ijtimoiy kommunikatsiyadagi roli ham bu fe'llarning semantik boyligini tasdiqlaydi. Natijada, tafakkur fe'llari semantikasining murakkabligi, ularning sintaktik va pragmatik darajadagi funksiyalari yanada chuqurroq anglashiladi. Bu esa kelajakdag'i tarjimashunoslik, kognitiv lingvistika va matnshunoslik sohalaridagi tadqiqotlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgal adabiyotlar

1. Апресян Ю. Лексикографическая концепция НБАРСа // НБАРС. Т. I. – М., 1993. – 420с.
- 2.A. Madvaliyev tahr. ost. O'zbek tilining izohli lug'ati – Toshkent: O'zME, 2006. – B. 606
3. XABIBULLAEVNA A. Z. Problems Of Distance Learning Of Foreign Languages In The Field Of Non Philological Education //JournalNX. – 2021. – T. 6. – №. 10. – C. 186-188.
4. Abidova Zilola Xabibullaevna. Ingliz tilida f'el va f'el kategoriyalari tadqiqi Til o'qitish:yangi yondoshuv va innovatsiyalar. Toshkent sharqshunoslik Universiteti:2022/5/10 p.92-95
5. ABIDOVA Z. TAFAKKUR FE'LLARINING INGLIZ TILI IZOHЛИ LUG'ATLARDAGI TALQINI //«ACTA NUUz». – 2024. – T. 1. – №. 1.5. 2. – C. 239-284.
6. Абидова, Зилола Ҳабибуллаевна ТАФАККУР ФЕ'ЛЛАРИ ТАРЖИМАСИДА СЕМАНТИК ДАРАЖАЛАНИШ ТАМОЙИЛИ // ORIENSS. 2023. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tafakkur-fellari-tarzhimasida-semantik-darazhalanish-tamoyili>.
7. Abidova Zilola Xabibullayevna. Rejalashtirmoq fe'llarining o'zbek tili izohli lug'atidagi talqini. Ta'lif innovatsiyasi va integrasiyasi 2024/2/1, 12 son, -B. 28-31.
8. Abidova Zilola Xabibullayevna. Taffakur fe'llarining o'zbek tili izohli lug'atlardagi talqini. Buxoro davlat universiteti ilmiy axboroti Том 5, Номер 5, 2024/5/5, B.108-111

